SEHRLI TULPOR

Ozarbayjon xalq ertaklari



ТОШКЕНТ «МАЪНАВИЯТ» 2017



TULPOR

Qadim zamonlarda bir podshoh bo‘lgan ekan. Bu podshohning uch o‘g‘li bor ekan. Podshoh o‘g‘illariga:

– Bolalarim, mening sizga uch vasiyatim bor. Bu vasiyatlarga amal qilmasangiz, boshingizga ko‘p balolar orttirasiz. Vasiyatimning biri – ovga chiqsangiz, uchalangiz birga chiqing. Ikkinchi vasiyatim – safarga yolg‘iz chiqmang. Uchinchi vasiyatim – daraxt tagida, devor tubida va o‘rmonda tunab qolmanglar.

Podshoh gapini tugatib, omonat jonini topshiribdi. O‘g‘illari otasining izzatini o‘rniga qo‘yib dafn etishibdi. El odatiga ko‘ra, qirq kun, qirq kecha aza tutishibdi. Ko‘zlarining yoshi qurigandan so‘ng, to‘ng‘ich o‘g‘il:

– Kelinglar, ovga chiqaylik, g‘amimiz biroz tarqasin, – debdi.

Uchalasi ham o‘q-yoy olib, otlarga minib, ovga chiqishibdi. Kechgacha ov qilishibdi. Tunash uchun o‘rmonda bir daraxtni tanlashibdi.

To‘ng‘ich o‘g‘il:

– Bu kecha shu yerda tunab qolaylik, – debdi.

Kenja o‘g‘il Malik Muhammad:

– Yo‘q, ketamiz. Otamiz, daraxt tagida tunamang, deb vasiyat qilgan, – debdi.

Uning gapiga e’tibor berishmabdi, otlardan tushib, daraxt tagida qoladigan bo‘lishibdi. Akalari uxlaganda, Malik Muhammad o‘zicha o‘ylabdi: «Otam bekorga vasiyat qilmagan. Men uxlamay bir kecha qorovullik qilaman. Qani, ko‘ray-chi, bu yerda nima hodisa bo‘lar ekan?»

Yigit shu kechasi uxlamay qorovullik qilibdi. Tun yarmidan oq‘ibdi. Bir payt qarasa, har bir shoxi chinorday keladigan bir dev kelyapti. Malik Muhammad kutib turibdi. Dev juda yaqinga kelganda, uning bo‘yniga bir qilich solibdi, kallasi sapchaday uzilib tushibdi.

Tong otib, og‘a-inilar yo‘lga tushishibdi. Bir joyga yetishganda, qorong‘i tushibdi. Og‘a-inilar uxlashga shuncha joy izlasalar ham topolmabdilar. Bir devor tubida to‘xtashibdi. To‘ng‘ich o‘g‘il:

– Shu yer panaroq, shu yerda tunaylik, – debdi.

Malik Muhammad:

– Otamiz devor tubida tunab qolmang, deb vasiyat qilgan-ku, – debdi.

To‘ng‘ich o‘g‘il:

– Vasiyatning hammasigayam ishonib bo‘lmaydi. Devor tubida bizga nima ham bo‘lardi? – debdi.

Kenja o‘g‘ilning gapiga qaramay, shu yerda tunaydigan bo‘lishibdi. Og‘a-inilar uxlab qolishibdi. Faqat Malik Muhammad uxlamabdi. «Otam bekordan bekorga vasiyat qilmaydi. Shubhasiz, bu yerda bir sir bor. Uxlamay ko‘ray-

chi, nima bo‘lar ekan?» – deb o‘ylabdi. Kechasi allamahalda bunday qarasa, ulkan bir dev yetti tegirmon toshini katta xodaga boylab, ular tarafga kelayotgan emish. Malik Muhammad yashirinibdi. U devor tagidan o‘tmoqchi bo‘lganda, uning boshiga bir qilich solib o‘ldiribdi. Bundan ham sog‘-omon qutulishibdi. Ertalab yana yo‘lga tushishibdi. Uchinchi kuni bir o‘rmonga yetishibdi. Qorong‘i tushib, hech yoqqa keta olishmabdi.

To‘ng‘ich o‘g‘il:

– Shu yerda qolaylik, – debdi.

Kenja o‘g‘il:

– Otamiz o‘rmon ichida qolmang, deb vasiyat qilgan, – debdi.

To‘ng‘ich o‘g‘il:

– Ikkita joyda qoldik, bizga hech narsa qilmadi, bu yerda ham jin urmaydi. Qani, cho‘zilinglar, – debdi.

Og‘a-inilar uyquga ketishibdi, ammo Malik Muhammad barmog‘ini tilib, ichiga tuz sepibdi, uxlamay poyloqchilik qilibdi. Qarasa, bir bahaybat dev kelyapti. Umrida bunaqangi dahshatli dev ko‘rmagan ekan. Malik Muhammad poylab turibdi. Dev Malik Muhammadga yetmay:

– Ey Malik Muhammad, qayerda bo‘lsang ham bu yoqqa chiq. Mening ikkita akamni o‘ldirib, bag‘rimni dog‘lading. Seni tilka-pora qilmasam, ona sutim harom bo‘lsin menga, – debdi.

Malik Muhammad yashiringan joyidan chiqib:

– Ey mal’un dev, qo‘lingdan kelganini qil. Maydon mardniki, – debdi.

Dev xanjarga qo‘l uzatmoqchi bo‘lganda, Malik Muhammad fursatni boy bermay, darhol qilichini sug‘urib uning boshiga solibdi, dev og‘ir jarohatlanibdi. Qo‘li bo‘shashib ketibdi, qochayotib, Malik Muhammadga debdi:

– Ey Malik Muhammad, yaxshilab eshit, falon tog‘ etagida bir g‘or bor. O‘sha g‘orda juda ko‘p la’l-u javohir bor. Borib ol, haloling bo‘lsin.

Tong otibdi. Malik Muhammad devlarni o‘ldirganini akalariga aytib beribdi.

– Uchinchi devni ham yaraladim. U falon tog‘da bir g‘or bor, – dedi. – O‘sha g‘orda juda ko‘p la’l-u javohir bor ekan. Endi yuringlar, o‘sha tog‘ga boraylik, devning gapi rost bo‘lsa, la’l-u javohirni olib kelaylik. Yolg‘on bo‘lsa, uyimizga qaytib ketamiz.

Og‘a-inilar otalari arvohiga duo o‘qishibdi. Birgalashib to‘g‘ri tog‘ga ketishibdi. Izlab-izlab g‘orni topishibdi. G‘orga kim tushadi, deb tortishishibdi. Malik Muhammad:

– Meni tushiring, – debdi.

Malik Muhammadni g‘orga tushirishibdi. U g‘orga tushib qarasa, unda shu qadar la’l-u javohir, olmos va boshqa qimmatbaho toshlar ko‘p ekanki, son-sanog‘i yo‘q. Bu la’l-u javohirni, olmoslarni ipga bog‘lab tashqariga chiqaribdi. Yana qarasa, bu yerda uch nozanin sanamni sochidan osib qo‘yishganmish. Malik Muhammad qizlarni yerga tushiribdi. Kichik qiz bilan ahd-u paymon qilib, so‘ng ip bilan ularni tashqariga chiqaribdi. G‘orda bir o‘zi qolibdi. Og‘a-inilar bir-biriga:

– Malik Muhammad tashqariga chiqsa, butun boyliklarga ega chiqadi. Yaxshisi, uni g‘orda

qoldiraylik, shu yerda o'lib ketadi, qutulamiz, bor davlatga o'zimiz ega bo'lamiz, – deyishibdi.

Shunday ham qilishibdi. Malik Muhammadni g'orda qoldirishibdi. Xazinani Qirqta tuyaga ortib, qizlarni ham o'tqazib, saroyga yo'l olishibdi.

Malik Muhammad akalari uni g'orda qoldirib ketishganini tushunibdi.

U g'or ostidagi yo'ldan keta boshlabdi. Qirq kun, qirq kecha yo'l yurib, oxiri bir shahardan chiqibdi. Aylanib-aylanib bir savdogarning do'koniga borib qolibdi. Savdogarga:

– Meni xizmatga olasizmi? – debdi.

Savdogar:

– Qo'lingdan nima ish keladi? – deb so'rabdi.

Malik Muhammad:

– Otboqarlik, – debdi.

Savdogarning bir yaxshi oti bor ekan, ammo otboqari yo'q ekan. U anchadan buyon otboqar izlarkan. Juda xursand bo'libdi. Malik Muhammad savdogarning otini juda yaxshi boqibdi. O'z vaqtida yemishini, arpasini beribdi, silab-siypab, suvga olib boribdi. Bir kuni otni sug'orishga borganda, savdogarning xotini uni ko'rib qolibdi. Qarasa, benuqson yigit. Unga oshiq bo'lib qolibdi. Yuragiga o't tushibdi. Uning dardida na kunduz sabri, na kecha qarori bor ekan. Bir necha kun shu tariqa kechibdi. Bir kun Malik Muhammadni yoniga chaqirib aytibdi:

– Ey yigit, sen bilan bo'lmasam o'laman, men bilan ko'ngil ochmaysanmi?

Malik Muhammad rozi bo'lmabdi. Oxiri xotinning jahli chiqibdi. O'z-o'ziga «Yaxshi, Malik Muhammad, seni bir tavbangga tayantirmasam,

otimni boshqa qo‘yaman», – debdi. Xotin bir yalmog‘iz kampirni topibdi. Unga bir hovuch oltin berib:

– Buvijon, seni Xudo yorlaqasin, bizning xizmatkorimizni o‘ldir, – debdi.

Kampir:

– Buving girgitton, o‘ldirish oson. Uni shunday joyga jo‘natish kerakki, go‘shtlari qurt-qumursqalarga yem bo‘lsin, – debdi. U yana, – eringga, menga bir uy qurdirki, devorlari ming bir rangga bo‘yalsin. Ichiga kirganda, jannatga kirganday bo‘lay, degin. U Malik Muhammadni ustaga jo‘natadi. Topa olmasa o‘lib, qurt-qumursqalarga yem bo‘ladi, – deb tayinlabdi.

Savdogarning xotini kampirga oltin berib kuzatibdi, so‘ng to‘g‘ri erining oldiga kelib:

– Menga uy qurdirasiz, devorlari ming bir rangda jilvalansin, ichiga kirganda, jannatga o‘xshasin. Shunday uy qurdirmasangiz sizdan ajralaman, vassalom, gap tamom, – debdi.

Savdogar xotinidan qattiq qo‘rqar ekan, oldindan jilovini uning qo‘liga berib qo‘ygan ekan. Xotiniga:

– Ey xotin, men bunaqa ustani qayerdan topaman? Aqlga sig‘adigan gapni gapirsang-chi, – debdi.

Xotin:

– Gapni qisqa qiling. Ustaning joyini Malik Muhammad biladi, jo‘natsangiz, topib keladi, – debdi.

Savdogar Malik Muhammadni yoniga chaqirib:

– Malik Muhammad, shunday bir uy qurdirmoqchimanki, devorlari ming bir rangda jilva-

lansin. Ichiga kirgan odam jannatga kirganday bo'lsin. Aytishlaricha, buning ustasini faqat sen topib kela olarkansan. Borib, olib kel, – debdi.

Malik Muhammad barmog'ini tishlabdi, gap xotindan chiqqanini anglabdi:

– Xo'jayin, bunaqa insofsizlik qilmang. Men bir bechora odam bo'lsam. Siz aytgan uyni quradigan ustani qayerdan topaman? Unaqa uyni quradigan odam bo'lmasa kerak.

– Gapni qisqa qil. Borib, topib kel. Bo'lmasa, seni tilka-pora qilaman.

Malik Muhammad hech narsa demabdi. Xafa, g'amgin holda otning yoniga kelibdi. Kayfiyati yo'qligidan otga yem, arpa berishni unutibdi. Oxur yonida xayoli parishon o'tiribdi. Ot uni bu ahvolda ko'rib, odamday tilga kiribdi:

– Ey Malik Muhammad, bugun menga nega yem bermayapsan? Men seni bu ahvolda hech ko'rmagandim.

Malik Muhammad uyqudan uyg'onganday joyidan otilib turib:

– Ey ot, meni kechir, xayolim joyidamas, shuning uchun senga yem berish yodimdan ko'tarilibdi, – debdi.

Yem keltirib, oxurga to'kibdi. Ot yemga qiyo boqmay:

– Ey Malik Muhammad, endi ayt-chi, nega xafasan? Nega xayoling parishon? – deb so'rabdi.

Malik Muhammad:

– Biroz betobman. Boshqa hech narsa bo'lgani yo'q, – debdi.

– Ey Malik Muhammad, xafaligingning sababini aytmasang, yemga og'zimni ham tekkizmayman. Xudo haqi, bosh olib ketaman.

– Ey ot, ko‘nglingni g‘ash qilmoqchi emasdim. Savdogar shunday bir usta topasanki, bir uy qursin, devorlari ming bir rangda jilvalansin, ichiga kirgan odam jannatga kirganday bo‘lsin, dedi.

– Ey Malik Muhammad, buning chorasini men bilaman. Hech g‘am yema, borib o‘sha ustani olib kelasan. Sen savdogarga, otni menga ber, o‘sha ustani olib kelaman, deb aytgin.

Malik Muhammad savdogarning yoniga borib:

– Usta uzoqda, otni bering, olib kelaman, – debdi.

– Ol, minib ketaver, – debdi savdogar.

Malik Muhammad to‘g‘ri otning yoniga kelibdi. Ot uni ko‘rishi bilan so‘rabdi:

– Nima bo‘ldi?

– Berdi.

– Yo‘lda hamroh bo‘lgani yaxshi.

Malik Muhammad otni egarlabdi. Ot yashin tezligida uni bir xaroba qabristonga olib kelibdi, yetti qabrdan o‘tib, sakkizinchi qabr yonida to‘xtab:

– Malik Muhammad, shu qabrga bir qamchi ur, – debdi.

Malik Muhammad qabrga bir qamchi uribdi. Shu zahoti qabr ochilibdi. Ot unga gap o‘rgatibdi. Malik Muhammad ot o‘rgatgan gaplarni aytibdi:

– Malik Jamshid, Malik Muhammad asboblarini olib kelib bizning uyni qursin, deyapti.

Qabrdan ovoz kelibdi:

– Asbob-uskunalarim ichkarida edi, olib chiq, ketamiz.

Ot buni eshitib, dalda beribdi:

– Sen qo‘rqmay qabrga kir. Oldingdan ikkita o‘ralgan gilam, ikkita to‘shalgan gilam chiqadi. O‘ralgan gilamlarni och, to‘shalgan gilamlarni o‘rab qo‘y. Yana oldingdan ikkita eshik chiqadi, biri yopiq, biri ochiq. Yopiq eshikni och, ochiq eshikni yop. Qarshingdan bir ot, bir it chiqadi. Ot oldida suyak, it oldida xashak bo‘ladi. Xashakni otga, suyakni itga ber. So‘ng bir kampirni uchratasan. Kampirga «Buvijon, o‘g‘lingiz asbob-uskunalarni bersin, deyapti» deysan. Kampir seni yeyish uchun tishlarini qayraydi. Uning oldida to‘la xurjun ko‘rasan. Narsalar o‘sha xurjunda. Sen darhol xurjunni ko‘tarib, olib qoch. Qo‘rqma, seni hech kim ushlay olmaydi.

Malik Muhammad otni tashqariga qo‘yib, qabrga kiribdi. Qabr ichi bilan biroz yurgandan so‘ng, oldidan biri o‘ralgan, biri to‘shalgan gilam chiqibdi. O‘ralgan gilamni ochibdi, to‘shalgan gilamni o‘rabdi. Biroz yurgandan so‘ng qarshisidan biri yopiq, biri ochiq eshik chiqibdi, yopiq eshikni ochibdi, ochiq eshikni yopibdi. So‘ng bir ot, bir it chiqibdi. It oldida xashak, ot oldida suyak turarkan. Otga xashakni, itga suyakni beribdi. Oxiri ro‘parasidan bir kampir chiqibdi, unga:

– Buvijon, o‘g‘lingiz asbob-uskunalarni bersin, deyapti, – debdi.

Kampir uni ko‘rib juda quvonibdi, yemoqchi bo‘lib tishlarini qayrabdi. Malik Muhammad uning ko‘zini shamg‘alat qilib, xurjunni olib qochibdi. Buni ko‘rgan kampir qichqiribdi:

– Ot, ushla uni!

Ot:

– Nega ushlar ekanman? Sen mening oldimga suyak qo‘yuvding. U suyakni itga, xashakni

menga berdi. U menga yaxshilik qildi, yomonlik qilgani yo'q, – debdi.

Kampir qichqiribdi:

– Hoy it, ushla uni!

– O'zing ahmoqsan yoki meni ahmoq deb o'ylayapsan. U menga yaxshilikdan boshqa narsani qilgani yo'q, nega ushlar ekanman? Oldimga xashak qo'ygan eding. Xashakni otga, suyakni menga berdi. Endi sekin-sekin kemirib, uni duo qilaman, – debdi it.

Kampir baqiribdi:

– Yopiq eshik, ushla uni!

Yopiq eshik:

– Nega ushlar ekanman? U menga hech yomonlik qilgani yo'q. Qanchadan buyon yopiq turardim, u kelib ochdi, – debdi.

Kampir yana qichqiribdi:

– Ochiq eshik, ushla uni!

Ochiq eshik:

– Nega ushlar ekanman? U menga yaxshilik qildi. Iloji bo'lsa qaytaraman. Anchadan buyon ochiq qoluvdim. U meni yopdi, tinchidim, – debdi.

Kampir aytibdi:

– To'shalgan gilam, ushla uni!

To'shalgan gilam javob beribdi:

– Hoy imonsiz yalmog'iz, nega ushlar ekanman? Anchadan buyon to'shalgandim, changtuproqqa qorishib yotuvdim. Sening oyog'ing ostida toptalib yotardim. U meni o'rab qo'ydi, tinchidim.

Kampir baqiribdi:

– O'ralgan gilam, ushla uni!

O'ralgan gilam javob beribdi:

– Nega ushlar ekanman? Anchadan buyon o‘ralib turardim. Burgalarga talanib yotuvdim. U meni to‘shadi, tinchlandim.

Hech qaysisi Malik Muhammadni ushlamabdi. U qabrdan to‘g‘ri tashqariga chiqibdi. Kerakli asboblar solingan xurjunni ot oldiga qo‘yibdi.

– Endi Malik Jamshidga, kerakli narsalarni olib keldim, deb xabar ber, – debdi ot.

Malik Muhammad qabrga:

– Hoy Malik Jamshid, asbob-uskunalarni olib keldim, – debdi.

Ot:

– Malik Muhammad, qabrdagi suyaklarni tashqariga olib chiqib qalashtir, – debdi.

Malik Muhammad qabrdagi suyaklarni tashqariga olib chiqib qalashtiribdi.

Ot:

– Malik Muhammad biroz meni kut. Men borib tiriklik suvi olib kelib, unga jon beray, – debdi.

Ot yashin tezligida g‘oyib bo‘libdi. Oradan biroz vaqt o‘tar-o‘tmas ortiga qaytibdi. Ot og‘zini suvga to‘ldirib kelibdi. U suvni Malik Jamshidning og‘ziga solibdi. Malik Jamshid aksa urib, o‘rnidan turib, aytibdi:

– Xush kelibsiz, ketdik!

Malik Muhammad bilan Malik Jamshid birga otga minishibdi.

Ot ularni savdogarning eshigi oldiga olib kelibdi. Malik Muhammad otni bog‘lab, usta bilan savdogarning yoniga kelib:

– Ustani olib keldim, – debdi.

Savdogar aytibdi:

– Uyni qurdir. Lekin aytganimday bo‘lsin.

Malik Jamshid:

– Men uyning devorlarini qurib ketaman. Tomini o‘zingiz yopasiz, – debdi.

Savdogar:

– Mayli, devorlarini sen qurgin. Ustini bekitish oson, – debdi.

Malik Jamshid ish boshlabdi. Bir oy ichida ming bir rangda jilvalanadigan bir uy qurib tugatibdi. Ichiga kirgan kishi jannatga tushganday bo‘larkan. Savdogarning og‘zi lang ochilib qolibdi.

Shunday qilib, Malik Jamshid ishini tugatibdi, haqini olib ketibdi. Uyning usti ochiq ekan. Usta qanaqa to‘sin olib kelsa ham uyga yetmabdi. Butun dunyoga xabar beribdi. Shu uy uzunligida yog‘och topilmabdi. Yana bir tomondan savdogar xotini Malik Muhammadni tinch qo‘ymabdi. Xotin kampirni chaqirib aytibdi:

– Buvijon, Malik Muhammad ustani olib keldi, aytganingdan ham yaxshi uy qurdirdi. Ichim o‘t bo‘lib yonyapti. Nima qilsak, u daf bo‘ladi?

Kampir aytibdi:

– Uyingizning tomini yopishga yog‘och topolmayapsiz-ku. Unga uyni qurdirdingmi, endi ustini ham bekitishing kerak, denglar. Qayerdan topadi? Borib o‘rmonda bo‘rilarga yem bo‘ladi. Ko‘rmaysan ham, kuymaysan ham, – debdi.

Savdogarning xotini kampirga oltin berib kuzatibdi, so‘ng erini chaqirib, debdi:

– Ahmoq bo‘lib, yog‘och izlab yuribsan. Topmayapsan. Uyni qurdirgan yog‘ochni ham topa oladi. Malik Muhammadni jo‘nat, borib topib kelsin.

Savdogar xotinining gapiga kiribdi. Darhol Malik Muhammadni chaqirib:

– Uyning ustini bekitish uchun yog‘och topasan! – debdi.

– Hoy insofsiz xo‘jayin, sen butun dunyoni axtarib topmagan yog‘ochni men qayerdan topaman? – debdi Malik Muhammad.

– Gapni qisqa qil, senga yetti kun muhlat.

Malik Muhammad xafa bo‘lib qaytibdi. Ot uni g‘amgin ko‘rib, so‘rabdi:

– Ey vafodor do‘stim, nega xafasan? Savdogar seni qayerga jo‘natmoqchi?

– Uyning tomini yopish uchun yog‘och topib kel, dedi. Men unga loyiq to‘sinni qayerdan topaman?

– G‘am yema, topamiz. Qirqta chiviq olib kel, meni min, ko‘kka uchaman. Chiviqning har biri bilan otni bir urib, yerga uloqtir.

Malik Muhammad qirq chiviq olib kelib, otga minibdi. Ot darhol ko‘kka uchibdi. Malik Muhammad har safar chiviqlarning biri bilan otni urib, yerga uloqtiribdi. Shunday qilib, chiviqlarning hammasi to‘singa aylanibdi. Ot pastga tushibdi va Malik Muhammadga:

– Borib savdogarga xabar ber, to‘sinlarni olib ketsin, – debdi.

U savdogarga xabar beribdi. Savdogar to‘sinlarni olib ketibdi. Uyning tomini bekitibdi.

Savdogarning xotini Malik Muhammadni yana tinch qo‘ymabdi. Malik Muhammad uning ko‘ziga ko‘ringanda go‘yo yuragiga o‘q tekkanday bo‘larkan. Uni o‘ldirish uchun har xil hiylanayrang o‘ylabdi. Ot bundan Malik Muhammadni xabardor qilibdi. Malik Muhammad otdan so‘rabdi:

– Endi nima qilay?

Ot javob beribdi:

– Sen savdogardan ruxsat olib ket. Savdogar senga, «sen menga ko‘p yaxshilik qilding, mendan nima so‘raysan?» deydi. O‘shanda sen otni bering, degin. Beradi, men seni bu qorong‘i dunyodan yorug‘ dunyoga olib chiqaman.

Malik Muhammad savdogarning yoniga kelib:

– Men anchadan buyon sening oldingda otboqarlik qilaman. Endi ota-onamning yoniga ketmoqchiman. Ruxsat ber, ketayin, – debdi.

– Ey Malik Muhammad, menga ko‘p yaxshilik qilding. Mendan nima so‘raysan?

– Sendan hech narsa so‘ramayman. Faqat otingni menga sovg‘a qil.

– Otni senga berdim, minib keta qol. Xudo o‘z panohida asrasin.

Malik Muhammad savdogar bilan xayr-xo‘shlashib, otning yoniga kelib:

– Savdogar seni menga sovg‘a qildi, – debdi.

– Malik Muhammad, o‘sha uyni qurgan Malik Jamshidga tegishli qafasni qo‘lingga ol, meni min, bu qorong‘i dunyodan yorug‘ dunyoga chiqaylik.

Malik Muhammad:

– Qafassiz chiqa olmaymizmi? – deb so‘rabdi.

Ot javob beribdi:

– O‘sha qafas sening qo‘lingda bo‘lmasa, seni urib yerga tushirishadi. Qafas qo‘lingda ekan, hech kim bizga ziyon yetkaza olmaydi.

Malik Muhammad otga minib, qafasni qo‘liga olibdi. Ot qanot yozib, havoga ko‘tarilibdi. Yetmish bir kun yo‘l yurib, yorug‘ dunyoga chiqibdi. Yorug‘ dunyoda bir tegirmonning yoniga kelishibdi. Qarasalar, shayton qalpog‘ini egri qo‘ndirib shu yerda o‘tiribdi. Shaytonning qo‘-

lida bir to‘tiqush bor ekan. Shayton Malik Muhammadni ko‘rganidan quvonib:

– Ey Malik Muhammad, qo‘lingdagi qafasni menga ber, ichiga shu qushni qo‘yaman, – debdi.

Malik Muhammad javob beribdi:

– Nega berar ekanman, jinni bo‘libmanmi? Yaxshi, odam bo‘lsang, sen qushni menga ber, qafasning ichiga qo‘yaman.

– Unda senga yo‘l bermayman. Baribir qafasni menga berasan.

Ot ularning bahsini hal qilish niyatida:

– Talashib-tortishib o‘tirmang. Har qaysingiz uch marta boshqa narsaga aylaning. Agar Malik Muhammad seni topa olmasa, qafasni senga bersin, sen Malik Muhammadni topa olmasang, to‘tiqushni unga berasan, – debdi.

Shayton bu shartga rozi bo‘libdi. Oldin Malik Muhammad ko‘zlarini yumibdi. Shayton cho‘pga aylanib, to‘tiqushning qanoti orasiga kiribdi. Malik Muhammad ko‘zlarini ochibdi. U yoq-bu yoqqa qaraganda, ot unga:

– Malik Muhammad, ko‘z-quloq bo‘l, qush birdan qanot yozib qochmoqchi, – debdi.

U darhol shayton qush qanoti orasiga yashiringanini anglabdi.

– Hoy shayton, to‘tiqushning qanoti orasidan tashqariga chiq, – debdi.

Shayton tashqariga chiqib:

– Mayli, birinchisini topding. Qani, ikkinchisini ham top-chi, – debdi.

Malik Muhammad ko‘zlarini yumibdi, shayton donga aylanib, to‘tiqushning oldiga to‘kilibdi. Malik Muhammad ko‘zlarini ochganda, ot aytibdi:

– Malik Muhammad, tezroq top, to‘tiqushning don yeydigan payti keldi, qorni ochdi.

Malik Muhammad darhol shayton donga aylanganini payqabdi va aytibdi:

– Hoy shayton, to‘tiqushning oldidan tur. Don deb o‘ylab, seni yeb qo‘yadi.

Shayton:

– Mayli, bunisiniyam topding. Endi uchinchisini topgin.

Malik Muhammad ko‘zlarini yumibdi. Shayton bir patga aylanib qushning patlari orasiga yashirinibdi. Malik Muhammad ko‘zlarini ochganda, ot:

– Malik Muhammad, go‘zal patli to‘tiqushga ega chiqmoqchi bo‘lsang tezroq top, – debdi.

Malik Muhammad shayton patga aylanib, qushning patlari orasiga yashiringanini sezibdi.

– Shayton og‘ayni, ko‘zlaringga pat kirib ketadi. To‘tiqushning pati ichidan chiq, – debdi.

Navbat Malik Muhammadga kelibdi. Shayton ko‘zlarini yumibdi. Malik Muhammad hiylaga o‘tib, sakray boshlabdi. To‘tiqush bu o‘yinga chalg‘ib, kula boshlabdi. U kulaverib, ko‘zlari yumilib qolganida, shartta taqaga aylanib, otning tuyoqlariga urilibdi. Shayton ko‘zini ochib, Malik Muhammadning qayerdaligini aytsin, deb qushga qarabdi, qush boshini chayqabdi. Shayton u yoq-bu yoqqa alanglab:

– Malik Muhammad, seni topa olmadim, qayerdasan, chiq! – debdi.

Malik Muhammad ot tuyog‘idan chiqibdi.

Yana shayton ko‘zlarini yumibdi. Bu safar Malik Muhammad maymunday o‘mbaloq osha boshlabdi. To‘tiqush kula boshlaganda, Malik

Muhammad uning ko‘zlarini shamg‘alat qilib, bir tukka aylanib, otning beliga yopishibdi. Uni qush ko‘rmabdi. Shayton ko‘zlarini ochib, Malik Muhammadning joyini bilmoqchi bo‘lib, qushga qarabdi.

Qush boshini chayqabdi. Shayton baqiribdi.

– Malik Muhammad, seni topa olmadim, qayerdasan, chiq!

Malik Muhammad ot belidan yerga tushibdi. Shayton yana ko‘zlarini yumibdi. Bu safar Malik Muhammad og‘iz-burnini qiyshaytirib, kulgili o‘yin qilibdi. Qush qattiq kulib qornini quchoqlaganda, Malik Muhammad bir arpa bo‘lib, otning oldiga tushibdi. Shayton ko‘zini ochib qushga qarabdi. Qush boshini chayqabdi. Shayton boshini qashib, aytibdi:

– Malik Muhammad, qayerdasan, chiq! To‘tiqushni senga berdim. Men so‘zimning ustidan chiqadigan maxluqman.

Malik Muhammad otning oldidan turib, uning yoniga kelibdi. Shayton to‘tiqushini unga berib aytibdi:

– Bu qush butun sehrlarni biladi. Senga nasib qildi. Buni ardoqla, senga ko‘mak beradi, kerak bo‘lsa, o‘limdan ham qutqaradi.

Malik Muhammad qushni qafasga solibdi. Shayton bilan xayrlashib, yo‘lga tushibdi. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay o‘z shahriga yetib kelibdi. Akalari uning kelganini eshitibdi-yu, biroq xijolatdan peshvoz chiqa olmabdilar. Katta akasi podshoh, o‘rtanchasi esa vazir edi. Podshoh o‘rtancha ukasiga:

– Malik Muhammad o‘lmay qaytib keldi. Bizga tashvish orttiradi. Bizdan qasos oladi.



Suvni loyqalatmay, uni darrov o'ldirish kerak, – debdi.

Bularning qarorini ot Malik Muhammadga yetkazibdi.

Malik Muhammad:

– Vafodor do'stim, men nima ham qila olar edim? Shohlik ularning qo'lida, qo'shin ham ular ixtiyorida. Seni olib o'lkadan chiqib ketishdan boshqa ilojim yo'q, – debdi.

– Ular seni mehmonga chaqirishadi, sen bormaslikka harakat qil. Agar borsang, to'tiqushni ham o'zing bilan olib bor. To'tiqush qayerdan yursa, sen ham shu yerdan yur. Nima yesa o'shandan ye, yemagan narsalarni yemagin.

Kunlardan bir kuni og'a-inilar Malik Muhammadni chaqirishibdi.

– Ukajon, xush kelibsan. Biz senga yomonlik qilganimiz yo'q. Narsalarni g'ordan olib chiqqanimizda, qorong'i tushdi. G'or birdan yo'q bo'lib qoldi. Yorug' bo'lganda, qancha izlasak ham g'orni topa olmadik. Afsus-nadomat bilan qaytib keldik.

Malik Muhammad:

– Nima qilsangiz, qilgansiz. Bularni qo'yib, boshqa gaplardan gapiring, – debdi.

Podshoh:

– Ertaga biznikida mehmon bo'l, olib kelgan kenja singil senga muntazir. Uni ham, g'ordan olgan xazinalarni ham senga beraylik, – debdi.

Malik Muhammad:

– Menga hech narsa kerakmas, – debdi.

Malik Muhammad ortiga qaytib, ahvolni otga va qushga aytib beribdi.

Qush aytibdi:

– Hoy Malik Muhammad, qo‘rqma, meni olib bor. Ular seni o‘ldirishmoqchi, ularning boshiga shunday o‘yin solayki!

– Aytganlarimni esingdan chiqarma, – debdi ot.

Shunday qilib tong otibdi, bir kishi kelib Malik Muhammadga:

– Podshoh seni mehmonga chaqiryapti, – debdi.

Malik Muhammad qushni olib, akalarinikiga mehmonga jo‘nabdi. To‘tiqush oldinda, Malik Muhammad uning ketidan yo‘lga tushibdi. Podshoh saroyiga yetib kelishibdi. Qush Malik Muhammadni oldingi eshikdan emas, orqa eshikdan olib kiribdi. Malik Muhammadni akalari ehtirom bilan kutib olib, to‘rga o‘tqazib, oldiga oltin laganda ovqat qo‘yishibdi. Malik Muhammad qushga qarabdi. Qush boshini quyi solib, indamay o‘tiraveribdi. Podshoh Malik Muhammadga aytibdi:

– Malik Muhammad, ukajon, nega ovqat yemayapsan?

U javob beribdi:

– Men shu qush bilan garov o‘ynaganman. Bu yemagan ovqatlarni men ham yemayman.

– Odam ham qushning gapiga kiradimi? Azizim, ovqatdan ye. Bu sarf-u xarajatlarni sen uchun qildik, – deyishibdi.

Malik Muhammadga ko‘p yalinib-yolvorishibdi. U qo‘lini ovqatga uzatganda, qush uning qo‘lini bir cho‘qib, ko‘zlarini olaytiribdi. Malik Muhammad qo‘lini tortib aytibdi:

– To‘tiqush yemagan ovqatlarni yesam, toshga aylanaman. Shuning uchun meni majburlamang.

Podshoh buyruq beribdi. Ovqatni olib ketib, boshqasini keltirishibdi. Qush buni ham yemabdi. Podshoh juda mulzam bo‘libdi. Iloji bo‘lsa, qushning kallasini uzardi. To‘tiqush tovoqni tumshug‘i bilan vazirning oldiga itarib, vazirning tovog‘ini o‘z oldiga tortib olibdi. Malik Muhammad:

– Qush-da, aqli yetmaydi, shuni yoqtirdi. Aybi yo‘q, aka, biz shu ovqatni yeya qolaylik, siz esa bizning ovqatimizni tanovul qiling.

Malik Muhammad bilan qush vazirning oldidan olingan ovqatni maza qilib yeyishibdi. Vazir podshohga qarabdi: «Men endi nima qilay?»

Podshoh unga, o‘zingni kasallikka solib chiqib ket, deb ishora qilibdi.

Vazir ovqatni yemay:

– Aka, mazam yo‘q. Ijozat bersangiz, ketsam, – debdi.

Shunday qilib, vazir chiqib ketibdi. Mehmondorchilik tugagandan so‘ng Malik Muhammad bilan qush uyga qaytishibdi. Tong otibdi, podshoh taxtga chiqib, vazirni yoniga chaqirib:

– Vazir, toki to‘tiqush bor ekan, Malik Muhammadni hech narsa qilib bo‘lmaydi. To‘tiqushni uning qo‘lidan tortib olish lozim, – debdi.

Vazir:

– Shohim, uni chaqirib, to‘tiqushni menga berasan, deb ayting, – debdi.

Bu so‘z podshohga yoqib tushibdi.

Darhol Malik Muhammadni yoniga chaqirib:

– To‘tiqushingni menga berasan, – debdi.

Malik Muhammad:

– Aka, shu ham adolatdanmi? Men shu qush bilan kun kechiraman. Uni sizga bersam, o‘zim nima qilaman? – debdi.

Podshoh:

– Men adolatni bilmayman. Bermasang, boshingni tanangdan judo qildiraman, – debdi.

Malik Muhammad qarasa, akasining vajohati yomon. Bir so‘z aytsa boshi ketadi. Tez uyga qaytib, ahvolini to‘tiqushga tushuntiribdi.

– Malik Muhammad, qo‘rqma, meni olib borib podshohga ber. U yog‘i bilan ishing bo‘lmasin, – debdi to‘ti.

Malik Muhammad to‘tiqushni olib borib podshohga beribdi. Qush shohning huzurida qolibdi. Malik Muhammad uyiga qaytib ketibdi. Qush bir duo o‘qigan ekan, podshoh taxtga yopishib qolibdi. O‘rnidan turmoqchi bo‘lsa, taxtdan ajralolmasmish. U vazirni chaqirib:

– Vazir, qara, taxtga yopishib qoldim. Bu nima sir bo‘ldi? – debdi.

Vazir yaqin kelganda, qush duo o‘qibdi, vazir ham podshohga yopishib qolibdi. Vakil kelib nima bo‘layotganini bilmoqchi bo‘libdi. U ham vazirga yopishib qolibdi. Shovqin-suronga podshohning butun a’yonlari, xizmatkorlari, haramdagilar kelibdi. Qush duo o‘qibdi, ular ham bir-biriga yopishib qolibdi. Qush Malik Muhammad va otga xabar beribdi. Malik Muhammad kelibdi. Podshoh uni ko‘rishi bilan:

– Ukajon, tavba qildim. Shohlikni ham, boryo‘q davlatimni ham senga berdim, meni bu balodan qutqar, – debdi.

Malik Muhammad:

– Ixtiyor to‘tiqushda. Bir gap aytsam, meni ham sizga yopishtirib qo‘yadi, – debdi.

Ot ham yetib kelibdi. Bu odamlarning bir tomonidan qush, bir tomonidan ot ushlab, os-

monning yettinchi qavatiga olib chiqib, yerga uloqtirishibdi, har qaysisi bir o‘lkaga tushib, parcha-parcha bo‘libdi.

Jamoat yig‘ilib, Malik Muhammadni o‘zlariga podshoh, otni vazir, to‘tiqushni vakil qilib saylashibdi. G‘ordan chiqarilgan kenja qiz Malik Muhammadni kutmoqda ekan. Kenja qizni olib kelishibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz Malik Muhammadning to‘yini o‘tkazishibdi. Malik Muhammad adolatli bir podshoh bo‘libdi, raiyatning har dardiga chora topibdi. U shu tariqa davr-u davron suribdi.

Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘.

SHOH ABBOS VA UCH OPA-SINGIL

Kunlardan bir kuni shoh Abbos Olloberdi vazir bilan darvesh kiyimida aylanishga chiqishibdi. Ular bir cho‘ponning eshigiga yetib kelishibdi. Qarashsa, cho‘ponning uch go‘zal qizi suhbatlashib o‘tirgan emish. Shoh Abbos vazirga:

– Olloberdi, kel, poylaylik-chi, bular nima haqda gaplashishayotgan ekan, – debdi.

Olloberdi vazir:

– Ixtiyoringiz, shohim, – debdi.

Ular uyning bir burchagida yashirinib, gapga quloq sola boshlashibdi. Katta qiz gap boshlabdi:

– Vazirning o‘g‘liga tegsam, o‘lsam armonim bo‘lmasdi.